

**BOY INSONLARNING SOLIQLARDAN QONUNIY QOCHISH USULLARI:
IJTIMOIY, IQTISODIY VA DAVLAT RIVOJIGA TA’SIRI.**

Ozodbek Chorshanbiyev

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

ozodbekxusniddinovich@gmail.com

ORCID: 0009-0002-0903-3565

Abstrakt

Ushbu maqola soliq tushunchasi, soliqdan qochish va ,o‘z navbatida, boy va badavlat insonlarning soliqlardan qonuniy ravishda qochish usullari haqida. Maqola avvalo soliqlarning ahamiyatini va ular biznes uchun qanday ijobiy yoki salbiy ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Soliqlar, davlat byudjetining asosiy manbai bo‘lib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir etadi. Biroq, yirik korxonalar egalari ko‘pincha soliqlardan qochish imkoniyatlarini izlaydi. Ushbu jarayon iqtisodiy barqarorlikka katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Maqolada bularning barchasini qo‘ldan kelgancha yoritishga harakat qilaman.

Kalit so‘zlar: Soliq, Soliqlardan qochish, qonuniy yo‘llar, iqtisodiy barqarorlik, davlat byudjeti

I. Kirish

Soliq tizimi har bir mamlakatning iqtisodiy asoslarini tashkil etadi. Davlat daromadlari tizimida markaziy moliyaviy manba bo‘lib soliqlar hisoblanadi. Soliqlar soliq qonunchiligi vositasida joriy etiladi. Soliqlar asosan fiskal, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish soliqlarning fiskal funksiyasini kasb etsa, ayrim tarmoqlar rivojlanishini rag‘batlantirish maqsadida turli xil imtiyozlar beriladi va kam daromadli aholining soliqlardan ozod etish, ularni davlat tomonidan moliyalashtirish hisobiga ijtimoiy vazifalar hal etiladi.¹ O‘zbekistonda ham soliqlar davlat byudjetining muhim manbai sifatida xizmat qiladi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Soliqlar davlatning infratuzilmasini, ta’lim va sog‘liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish uchun zarur. Biroq, ko‘plab yirik korxonalar rahbarlari iloji boricha kamroq soliq to‘lashga harakat qilishadi. Bu jarayon, o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyoti va uning rivojiga bevosita ta’sir qilishi turgan gap.

¹Sevinch Shirinbayeva, (2024). Yirik Soliq To‘lovchilardan Undiriladigan Soliqlar. *Aktuar Moliya va Buxgalteriya Hisobi Ilmiy Jurnali*, 8(6), 264.

To‘g‘ri soliq siyosatini amalga oshirish davlat rivojiga katta ta‘sir qiladi. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi 1991 yilda o‘z mustaqilligiga erishganidan so‘ng, davlat soliq siyosatini isloh qildi. Buning asosiy maqsadi iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor iqtisodiyotiga o‘tishdir. Ushbu jarayon davomida yangi soliq qonunchiligi va tizimlari joriy etildi. Hozirda O‘zbekistonda jismoniy va yuridik shaxslar uchun turli xil soliqlar mavjud. Masalan, daromad solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) va hokazo. Bu soliqlar davlat byudjetini shakllantirish va ijtimoiy xizmatlarni ta‘minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida berilgan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yilgi birinchi yarim yillik byudjeti daromadlari tarkibi diagrammasi keltirilgan. Ushbu diagrammadan ham ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekiston daromadlarining asosiy qismi ham turli xil soliqlardan tashkil topgan. Aniqrog‘i, byudjet daromadlarining 89%ini soliqlar tashkil etgan bo‘lib, bu umumiy miqdorda sal kam 97,5 trilion so‘mni tashkil qiladi. Bu soliqlar orqali mamlakatni jadal rivojlantirish, iqtisodiy barqarorlikka erishish va infrastrukturani yaxshilash imkoniyati mavjud. Shuning uchun ham soliqni to‘lashdan yirik korxonalarining bo‘yin tovlashi mamlakat rivojiga ma‘lum bir ma‘noda bolta uradi.

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash iqtisodiy siyosat va soliq ma‘muriyatchiligiga mas‘ul mansabdor shaxslar va ularning inkassatorlari duch keladigan muammolardan biridir, ayniqsa, davlat iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun infratuzilma va davlat xizmatlarini taqdim etish zaruratida past daromad va yuqori xarajatlardan aziyat chekayotganda. Agar davlat soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash natijasida barcha kutilayotgan soliq tushumlarini yig‘a olmasa, ular o‘z byudjetlarida qo‘shimcha defitsitlarga duch keladilar, bu esa o‘sha mamlakatlardagi qaror qabul qiluvchilarni ko‘proq soliq joriy etishga va soliq bazasini kengaytirishga olib kelishi mumkin, yoki ular daromaddagi kamchilikni qoplash uchun qarz olishni ko‘paytirishi mumkin.² Bu barcha uchun birdek qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

I. Usul

Ushbu maqola uchun asosiy tadqiqot metodologiyasi sifatida huquqiy tahlil usuli tanlandi. Maqola soliqqa tortish to‘g‘risidagi qonunlarni tahlil qilish orqali boy insonlar soliqdan qonuniy yo‘llar orqali qanday qochishni o‘rganish orqali yozildi. Unda bir qancha usullar orqali soliqlardan qochish yo‘llari keltiriladi. Buning davlatga ijobiy va salbiy ta‘sirini muhokama qilish orqali bir qancha taklif va tavsiyalar berish orqali ehtimoli bor muammolarni bartarash etishdan iborat. Maqolada, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan statistik ma‘lumotlar keltirilgan.

²Abdullah Ghazo, Qusay Qasrawi & Ziad Abu-Lila, (2021). An Econometric Analysis of Tax Evasion and Its Consequences on Economic Performance. *Emerging Science Journal*, 5(2), 211. In English.

I. Natijalar

A. Soliq Qonunchiligi

Har bir davlat o‘z soliq siyosatini amalga oshiradi va o‘z soliq qonunchiligiga ega. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligi asosiy qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlardan iborat. Eng asosiy soliq qonunchiligi hujjatlar qatoriga “Soliq kodeksi” va “Jismoniy shaxslarning soliqqa tortilishi” to‘g‘risidagi qonunlar kiradi. Ushbu qonunlar O‘zbekistondagi soliq siyosatini qonunchilikda belgilangan tartibda iqtisodiy faoliyatni tartibga solishga qaratilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 10-moddasi soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashni taqiqlaydi. Bundan tashqari, kodeksda bir qancha imtiyozlar ham mavjud bo‘lib, bu orqali soliq imtiyozlarini qo‘lga kiritish mumkin. Bu kabi imtiyozlar dunyoning boshqa davlatlarida ham mavjud bo‘lib, boy insonlar ularning keng ommaga ma‘lum bo‘lmagan turlaridan foydalanishadi.

A. Qonuniy Soliqdan Qochish Usullari

1. Qarz olish orqali

Deyarli barcha millionerlar va milliarderlarning boyliklar aksiyalardan³ iborat. Misol uchun, dunyoning eng boy insonlaridan hisoblanmish Elon Muskning asosiy boyliklari Tesla va SpaceXning aksiyalaridan iborat. Vaqt o‘tishi bilan aksiyalar ma‘lum bir qiymatda o‘sishi yoki aksincha o‘z qiymatini yo‘qotishi mumkin. Boy insonlar agarda o‘z aksiyalarini, ya‘ni korxonadagi o‘z hissasini sotadigan bo‘lsa, bunga o‘z navbatida, daromad solig‘i to‘lashlari zarur. Chunki, ular bundan foyda olishyapti. Bundan tashqari, dunyoning ko‘plab mamlakatlari (masalan, AQSh)da biror bir mulk sotib olganlik uchun ham soliq to‘lashlari kerak. Bu albatta boy insonlarga yoqmaydi. Sababi ular kamroq sarflab ko‘proq daromad qilish haqida doimo o‘ylashadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan soliqlardan qochishning juda ham ajoyib usuli bor. Buning uchun boy insonlar bankdan o‘z aksiyalarini garovga qo‘ygan holda, aksiyalarning qiymatiga mos qarz olishadi. Va ular, ma‘lum bir muddatdan davomida qarzlarning arzimagan qismini qoplashadi, undan so‘ng esa ular qarzlarni shunchaki to‘lashmaydi. Qarapsizki, bank ularni sudga berishadi va sud garovga qo‘yilgan aksiyalarni bankning hisobiga o‘tkazib beradi. Shunday qilib, ikki tomon ham xursand, boy inson hech qanday soliq to‘lamasdan o‘z aksiyalarini pul ko‘rinishiga keltirib oldi, bank ham o‘z o‘rnida hech qanaqa soliq to‘lamasdan qimmatli qog‘ozlarga ega bo‘lishdi. Bundan ikki tomon ham birdek manfaat ko‘radi.

1. “Xayriya” qilish orqali

³Aksiya — bu uning egasi hissadorlik jamiyati kapitaliga o‘zining ma‘lum hissasini qo‘shganligiga va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatbaho qog‘ozdir. Bundan tashqari, aksiya korxonani boshqarishda qatnashish huquqini ham beradi.

Badavlat insonlarning mulkini aksiyalar tashkil qilishidan tashqari ularning o‘z korxonasidan oladigan foydasi ham mavjud. Bu korxonaning yirikligiga qarab, foydaning hajmi o‘zgarib boradi. Mashhur amerikalik jurnalist va yozuvchi Mignon McLaughlin⁴ aytganidek “We’re all born brave, trusting and greedy, and most of us remain greedy.” Ma’nosi shuki, Biz hammamiz jasur, ishonchli va ochko‘z bo‘lib tug‘ilganmiz va ko‘pchiligimiz ochko‘z bo‘lib qolamiz. Shunday ekan tinib-tinchimas va ochko‘z insonlar bu foyda uchun ham soliq to‘lamaslikning yo‘lini topishgan.

Buning uchun tadbirkor boshqa bir tashkilot ochadi. Tuzulishiga ko‘ra bu xayriya tashkiloti bo‘lishi kerak. Soliqdan qochishni reja qilgan tadbirkor korxonasi ko‘rgan foydani o‘zi tashkil qilgan xayriya tashkilotiga xayriya qilib beradi. Ko‘plab mamlakatlarning qonun-qoidalariga ko‘ra xayriya qilingan pul soliqqa tortilmaydi. Shu o‘rtada savol tug‘ilishi mumkin. Qanday qilib pulni xayriya qilishdan tadbirkor foyda ko‘rishi mumkin? Ming afsuski, bu pullar yana qaytib tadbirkorning kissasiga qaytib tushadi. Agar xayriya tashkilotining barcha hujjatlarini “to‘g‘ri” yurutilsa, buni qonuniy qilib aks ettirish mumkin.

A. Soliq Qochishning Ijtimoiy-Iqtisodiy Ta’siri

Soliqlarni kamaytirish orqali korxonalar o‘z xarajatlarini kamaytiradi. Bu ularning mahsulot va xizmatlar narxini pasaytirishga olib keladi va aholi uchun arzon narxlardagi tovarlar va xizmatlar taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, korxonalar o‘z investitsiya imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa iqtisodiy o‘rinishni rag‘batlantiradi va yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Biroq, ko‘plab korxonalardan olinadigan soliqlar miqdori tushib ketsa, bu davlatning ijtimoiy dasturlarini amalga oshirish imkoniyatini cheklaydi va davlatning moliyaviy holatiga zarar yetkazishi mumkin.

I. Muhokama

Ushbu maqolada boy insonlarning qonuniy soliqlardan qochish usullari tahlil qilingan. Maqola natijalari shuni ko‘rsatadiki, soliqlardan qonuniy ravishda qochishning turli usullari mavjud bo‘lib, ular iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Biroq, bu jarayonlarning amalga oshirilishi uchun soliq qonunchiligini chuqur tushunish va amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash zarur. Shuningdek, soliqlardan qonuniy ravishda qochish amaliyoti davlat byudjetiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi uchun davlat nazoratini kuchaytirishi zarur. Buning salbiy ta’sirini oldini olish uchun takliflar:

1. Soliq qonunchiligini takomillashtirish zarur. Bu jarayon orqali soliqlarni yanada adolatli va tushunarli qilish. Shuningdek, soliq to‘lovchilarning huquqlarini himoya qilish mumkin.

⁴Mignon McLaughlin (1913 yil 6 iyun - 1983 yil 20 dekabr) amerikalik jurnalist va yozuvchi.

2. Soliq maslahatchilari tayyorlash va ularga zamonaviy bilimlarni berish. Bu orqali biznes sub'yektlari soliq qonunchiligini yaxshiroq tushunishlari va qonuniy soliq qochish usullaridan samarali foydalanishlari mumkin.

3. Davlat tomonidan soliq nazoratini kuchaytirish orqali soliqlardan noqonuniy qochish holatlarini kamaytirish.

Xulosa

Iqtisodning yirik qismini tashkil qiluvchi katta korxonalarining soliq to'lashi davlat uchun muhim ahamiyatga ega. Qonuniy yo'l bilan ularning soliq to'lashdan qochishi yoki ularni kamaytrishi, uning rivojlanishiga yordam berishi mumkin. Ortirilgan mablag'larni korxonalar investitsiya yoki bo'lmasa ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga sarflashi mumkin. Bu albatta tadbirkorlik sub'ektlarning barqaror rivojiga hissa qo'shadi. Bundan tashqari ular xarajatlarni kamaytirish orqali tan narxini pasaytirishi bu esa aholiga ma'qul kelishi turgan gap.

Tanganing ikkinchi tarafiga nazar tashlaydigan bo'lsak, soliqlarning sezilarli darajada kamayishi bu davlatning iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat byudjetini asosiy qismini soliqlar tashkil qilganligi tufayli soliqlarning kamayishi davlat byudjetini og'ir ahvolga solib qo'yadi. Bu, o'z o'rnida, infrastrukturani shakllantirishda, aholini ijtimoiy himoya bilan ta'minlashga bundan tashqari davlat o'z faoliyatini yuritishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun, qat'iy soliq tizmini joriy qilish, tadbirkorlarning qonunni chetlab o'tish holatlarini cheklash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Abdullah Ghazo, Qusay Qasrawi & Ziad Abu-Lila, (2021). An Econometric Analysis of Tax Evasion and Its Consequences on Economic Performance. *Emerging Science Journal*, 5(2), 211. In English. <http://dx.doi.org/10.28991/esj-2021-01271>

Harish Renganathan, (2023). Tax Avoidance By The Rich, A Way For Them To Get Richer. *Indian Journal of Integrated Research in Law*, 3(6), 384-388. <https://doi-ods.org/doi/10.2021-68922815/IJIRL>

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. <https://lex.uz/docs/-4674902>

Reiter, F., Langenmayr, D. & Holtmann, S., (2021). Avoiding taxes: banks' use of internal debt. *International Tax and Public Finance*, 28, 717-745. <https://doi.org/10.1007/s10797-020-09625-2>

Sevinch Shirinbayeva, (2024). Yirik Soliq To'lovchilardan Undiriladigan Soliqlar. *Aktuar Moliya va Buxgalteriya Hisobi Ilmiy Jurnal*, 8(6), 264. https://doi.org/10.55439/AFA/vol4_iss06/412

U. O'roqov & N. Anvarov, (2022). Mamlakat Iqtisodiyotini Rivojlantirishda Byudjet-Soliq Siyosatining Ahamiyati. *Journal of Advanced Research and Stability*, 466-471. <https://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/3253/2970>

Yenny Rachmad, Nuraini A & Fifi Yusmita, (2023). What Motivates Companies to Avoid Tax? *Jurnal Aset*, 15(1), 89-98. <https://doi.org/10.17509/jaset.v15i1.51844>